

O'ZBEK ASHULACHILIK SAN'ATIDAGI MAHALLIY USLUBLARNING O'ZIGA XOSLIGI

Kuchkarov Maxsudjon Bazarbayevich

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali direktori

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada musiqa san'atining qadimiyligi, ya'ni o'zbek ashulachilik maktabi (maqom, ashula, suvora qo'shiqlar) haqida bo'lib, maktab namoyondalari to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'z: san'at, ashula, maqom, suvora, qo'shiq, lad, tarix, janr, kuy.

Аннотация: эта научная статья посвящена древности музыкального искусства, а именно узбекской певческой школе (маком, ашула, сувора песни) и содержит информацию о школьных проявлениях.

Ключевое слово: искусство, пение, статус, сувора, песня, история, жанр, мелодия.

O'zbek ashulachilik san'ati ma'naviyatimizning eng go'zal nomoddiy madaniy durdonalaridan biri bo'lib hisoblanadi. San'atning dargohi keng bo'lsada, har bir mahalliy uslubning o'ziga xos o'rni, mavqeyi, darajasi, shu bilan birga zahmati har bir san'atkor uchun ko'p o'qib izlanish va o'z ustida tinmay shug'ullanish kerakligini talab qiladi. Chunki san'atkorlar va musiqachilar qancha o'z ustida ko'p shug'ullansa uning san'ati shuncha sayqallashib boraveradi. Ana shunday san'at namunalari ma'naviyatimizning xazinalarini boyitib kelgusi avlodlarga nomoddiy madaniy meroslar qoldirishda katta xizmat qiladi. Biz o'zbek ashulachilik maktabi namoyondalarining ijro uslubi va ularning hayoti haqida fikr yurutar ekanmiz, avvalom bor ularning ijodiy maktablarini chuqur o'rgangan holda san'at sevar xalqimizga asosli ravishda nomayon



etishimiz mumkin bo'ladi. Fikrimiz davomi sifatida o'zbek ashulachilik maktabi bir qancha mahalliy uslublarga bo'linadi.

O'zbek ashulachilik san'atining mahalliy uslublari.

O'zbek xalqining an'anaviy ashulachilik merosida xonandalik mahalliy uslubi mavjud bo'lib, ular quyidagicha nomlanadi:

1. Farg'ona - Toshkent xonandalik uslubi.
2. Buxoro - Samarqand xonandalik uslubi.
3. Xorazm xonandalik uslubi.

Farg'ona-Toshkent mahalliy uslubi bo'lib, ushbu mahalliy uslub Farg'ona vodiysi, Toshkent shahri va viloyati hududlarida qaror topgan. Farg'ona – Toshkent musiqa uslubida bolalar folklori, xotin qizlarning qo'shiqchilik ijodi, yallachilik, ashulachilik va cholg'u kuylari munosib o'rin tutadi. Farg'ona – Toshkent musiqa uslubida ya'ni ashula janrida "Katta ashula" deb nom olgan ashula yo'li ham bo'lib, u odatda turli ommaviy yig'in va tantanalarda, bayram marosimlari va gap – gashtaklarda hamda an'anaviy choyxona majlislarda hofiz va san'atkor xonandalar tomonidan ijro etib kelingan. Farg'ona – Toshkent ashula ijrochilik maktabi amaliyotida ham deyarli barcha milliy xalq cholg'ulari, jumladan, dutor, tambur, rubob, chang, sato, g'ijjak, nay, qo'shnay, surnay, karnay, doira, nog'ora va boshqa sozlarni ko'rish mumkin.

Ushbu musiqa sozlari vaziyatga qarab, yakka yoki ansambil (dasta) shaklida namoyon bo'ladi.

Aynan ashulachilik ijro uslubida keng qo'llaniladigan musiqa cholg'ulari respublikamizning turli xil ommaviy bayramlari, to'y marosimlari, xalq tantanalarida ularning sadolari keng yangrashni ayni haqiqatdir. Binobarin, xalqimizning madaniy hayotida har bir milliy cholg'ularning o'z o'rni va vazifalarini ijro etiladigan maxsus ashula va kuylari bor. Farg'ona – Toshkent ashula maktabi ijrochilikda ikki xil kuyohang shakllangan bo'lib, bular quyidagicha:

Birinchisi: Xalq og'zaki musiqa ijodida yuzaga kelgan ashulalar va bastakorlar tomonidan ijro etilgan ashulalardan iboratdir.



“Tanavor”, “Ey nozanin”, “Oydek bo‘libdur”, “Farzoni”, “Ul parivash” ashulalari nafaqat hofizlar balki, ziyolilar va boshqa kasb egalari tomonidan ijro etib kelinmoqda.

Farg‘ona – Toshkent ashula maktabi ijod qilgan yetuk namoyondalari haqida to‘xtalar ekanmiz, shubu ijrochilik maktabiga katta hissalarini qo‘shgan T.Jalilov, G‘.Toshmatov, J.Sultanov, K.Jabbarov, Fattoxon Mamadaliyev, Ma‘murjon Uzoqov, Fahr Sodiqovlar singari yetuk bastakorlar haqida to‘xtalish o‘rinlidir.

O‘rta Osiyo olimlarining musiqiy risolalari tarjimasi o‘zbek xalqi musiqa madaniyati taraqqiyotining tarixiy jarayonini tasavvur qilishimizga yordam beradi.

Fikrimizning asosi sifatida o‘zbek xalqi o‘zining ko‘p yillik ashulachilik tarixiga ega bo‘lib, u turli hududlarda kuylashning turlicha ijrochilik uslublari mavjud bo‘lgan.

Har bir hududda mahalliy xalqning o‘ziga xos turmush tarzi, she’valari, urf - odati, mavjud bo‘lgani kabi ularning kuylash uslublari ham bir-biridan farq qilgan.

Buxoro-Samarqand ashulachilik uslubi viloyat hududlarida qaror topgan muayyan musiqiy qadriyat va an’analar majmuyidir.

Qadim-qadimdan madaniyat taraqqiyotining muayyan darajasi bo‘lib kelayotgan bu vohalarda o‘zbek xalq musiqa ijodiyoti namunalari keng o‘rin tutadi. Ayniqsa, professional musiqa yo‘nalishlarining rang-barangligi va ularning turmush tarzida keng tarqalganligi bilan ajralib turadi. O‘ziga xos jihatlaridan yana biri – ushbu makondagi [o‘zbek](#) va [tojik](#) xalq musiqa an’analarining bir-biriga yaqinligi, jumladan ashulachilik janrida ham namoyon bo‘ladi. Ikki xalqning an’anasi shu vohalarda yashab ijod qilgan ko‘pgina shoirlar [Mujrim Obid](#), [Abdullo Mulham Buxoriy](#), [Fitrati Zardo‘zi Samarqandiy](#) va boshqalar ijodida ham ko‘rishimiz ayni haqiqatdir. Azal-azaldan butun dunyoga diniy ma’rifat, ma’naviyat o‘chog‘i sifatida tanilgan Buxoro va Samarqand





shaharlarida kitobxonlik, g'azalxonlik, qissaxonlik, qalandarxonlik, maddohlik kabi o'quv yo'llari keng rivoj topgan. Turli marosimlar, to'y va ommoviy tadbirlarda mavrigixonlar va sozanda dastalari tomonidan ijro qilingan raqs va ashula turkumlari katta ahamiyat kasb etadi. Professional sohalar qatorida musiqa yo'nalishlaridan maqom va ashulachilik san'ati asosiy o'rinda turadi. Xususan, XVIII asr o'rtalarida Buxoro saroy madaniyatida Shashmaqom turkumlari shakllangan bo'lib, asta-sekinlik bilan Xorazm maqomlari hamda Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Shashmaqom turkumlarining ashula yo'llarini yetuk ustoz hofizlar kuylashgan. Bular Domla Halim Ibodov, Ota Jalol Nosir, Ota G'iyos Abdug'ani, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Levi Boboxonov kabi yetuk ustozlar olti maqom turkumining mahoratli ijrochilaridan bo'lganlar.

Mahaliy uslublar qatorida o'z o'rniga ega Xorazm musiqa uslubi ham shu vohadagi maqom san'ati, ashulachilik, dostonchilik, xalq qo'shiq va laparlari turli marosimlar, tomosha va o'yinlar, raqs hamda kuylari kabi kasbiy musiqa an'analari asosida tashkil topadi. Milliy musiqa san'atimizning tarkibiy qismi bo'lgan Xorazm musiqa san'ati ayni vaqtda o'ziga hosligiga egadir. Xorazm vohasida ashulachilik san'ati keng tarzda ravnaq topgan bo'lib, ashulachilarni xalq o'g'zida ko'proq "go'yanda" deb ham atashadi. Ashula janrining muhim jihatlari shundaki, u asosan mumtoz she'riyat namunalarida o'z ifodasini topadi. Xorazm mahaliy uslubiga xos bo'lgan "Suvora" nomi bilan ma'lum va mashhur ashula turkumlari ham bor. "Suvora" so'zi fors-tojikcha bo'lib, otliq ma'nosini

bildiradi. Ustozlar "Suvora" ashula yo'llarini "Ot tuyog'idan hosil bo'ladigan turli ritmik tuzilmadagi usullar va ular asosida yuzaga kelgan kuylarni ifodalaydi", deb fikr yuritadilar. Xorazm ashulachilik yo'llarida ijro qilinadigan suvoralar Navoiy, Mashrab, Nodira, Zaliliy, Ogahiy, Munis, Avaz O'tar, Bedil kabi shoirlarning she'rlari va g'azallari asosida ijro etiladi. Xorazmda suvora ijrochilarining didilashma yoki diydalashma deb yuritiladigan o'ziga xos musobaqalari o'tkazib turadilar. Bunday musobaqada qatnashayotgan bir necha ashulachining har biri dastlabki (birinchi) ashulachi taklif etgan ashula kuyi



asosiga yangi she'rlar bog'lab, navbatma-navbat kuylab ijro qiladilar. Suvoralarning mashhur ijrochilari qatorida Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Madrahim Yoqubov (Sheroziy) kabi ijrochilarning nomlari alohida hurmat bilan tilga olsak o'rinli hisoblanadi. Xorazmda suvora ashula yo'llarining ikki turkumi mashhur bo'lib, ular quyidagicha nomlar bilan ataladi:

Birinchi: O'n ikki suvoradan iborat "Savti Suvora"lar turkumi. Bu turkumdagi har bir suvora rim raqami bilan belgilanadi.

Masalan, "Savti Suvora I", "Savti Suvora II", "Savti Suvora III", "Savti Suvora IV" va hokazo. Ushbu turkumdagi barcha Suvoralar 6/8 musiqiy ritm o'lchov vaznidagi doira usullari bilan ijro etiladi.

Ikkinchi: Suvoralarning yana bir turkumini yirik shaklli suvoralar yig'indisini tashkil etadi. Bunda suvoralar turkumidagi har bir suvoraning maxsus nomi bo'lib, ular "Suvora", "Chapandozi suvora", "Yakparda suvora", "Xushparda suvora", "Kajhang suvora" deb nomlanadi. Bu suvoralarda 6/8, 3/4, 3/8 musiqiy ritm o'lchovlari va ularga muvofiq doira usullari ijro etiladi. Shuningdek, Xorazmda suvoralaridan tashqari yana alohida ashula yo'llari ham mavjud bo'lib, ular "Mustahzod" va boshqalaridir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, milliy mumtoz ashulalarning kengroq diapazonligi, baland avj tomonlari bilan xalq og'zaki ashulalaridan katta darajada farqlanishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Ularning rivojlanish va yuksalish jarayonlari daromaddan tutib, avj pardalarigacha mustahkamlanib boradi. Shu tufayli ashula janridagi asar mumtoz va yetuk bastakorlik ijodiyotlarida o'z aksini topgan, uning bir qancha lokal variantlari mavjud bo'lib, Bulardan, Buxoroda xalq ashula va Muxammas, Xorazmda suvora va naqsh, Farg'ona vodiysida ashula yo'llari, katta ashula, Yovvoi ashula deb yuritiladi. Diniy va pand-nasihat mavzuidagi (Mashrab, Ahmad Yassaviy, Ogahiy, Feruz, Haziniy, Furqat, Huvaydo, Maxtumquli) mumtoz ashula yo'llari fikrimiz asosi hisoblanadi. Bunday ashulalar yaratilishi va shaklanishi mumtoz musiqa san'atimizning mazmuni jihatdan yanada murakkab va mukammal bo'lib

borishida kelgusi avlodlarimizga ta'lim va tarbiya jarayonida poydevor vazifalariga datiriy amal bo'la olishi ayni haqiqatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Rahmatjon Tursunov, Sultonali Mannopov “An'anaviy qo'shiq ijrochiligi uslubiyoti” T.:2003 yil.

2.Hamidov H. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. T.: O'qituvchi, 1996 yil.

3.Klayeva, Zarnigor Maxmudovna, and Sadoqat Ruslanovna Shamsiyeva. “Qo'shiq tushunchasi va uning inson hayotida tutgan o'rni hamda xonandalik ijrochiligi tarixi. Scientific progress 1.5 (2021): 336-342.

